



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 27-dekabr

II-5-024-14-220-K/24

Yangihayot tumani

Yangihayot tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsientni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda O‘RQ-1014-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, shuningdek, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i J.Ergashovning tumanda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsientlar yuzasidan 2024-yil 4-dekabrda 21-15604-son xatini inobatga olib, soliq yo‘nalishidagi faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida, xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Yangihayot tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i J.Ergashovning “Yangihayot tumanida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi takliflari inobatga olinsin va ma‘qullansin.

2. Qarorga binoan 2025-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartib joriy etilsin:

a) 2025-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslarning noturar obektlari uchun yer solig‘i bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq;

b) 2025-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslarning turar obyektlari uchun olinadigan yer solig'i bo'yicha mutloq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yangihayot tumani soliq inspeksiyasi (**J.Ergashov**)ga:

Ushbu qaror kuchga kirgandan so'ng, o'n kunlik muddat ichida, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun 2025-yilga belgilangan soliq stavkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilishi;

budjet daromadlari ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish, qo'shimcha soliq zaxiralarini aniqlash va soliqqa tortish hamda tumanni iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlar ko'rish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashiga har chorak yakuni bo'yicha ma'lumot kiritib borilishi ta'minlansin.

4. Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi **S.Vafayev**, tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari **A.Maxmudov**, tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i **J.Ergashov**, tumandagi tegishli okruglardan saylangan deputatlar va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari raislari bilan birgalikda:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yer solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish va qo'llash tartibi joriy etilganligini keng targ'ib qilish, aholi o'rtasida tushuntirish ishlarni olib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimining Matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi (**M.Abdushukurova**) va tuman Soliq inspeksiyasi (**J.Ergashev**)ga:

mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlari bo'yicha belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi ta'minlansin.

6. Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrda "Yangihayot tumanida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha 2024-yilda soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyentini tasdiqlash to'g'risida"gi I-67-201-14-220-K/23-sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi **S.Vafayev** zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOGAMOV XAYOT
ILYASOVICH

Xalq deputatlari Yangihayot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrda
II-5-024-14-220-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**2025-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslarning noturar obektlari uchun yer solig'i
bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo'llaniladigan
koeffitsiyentlar
(noturar ob'ektlar 1 gektar uchun)**

№	Mahalla nomi	Zona	2025-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Yangi Darxon MFY	4	1,28
		5	1,28
2	Yangi Umid MFY	4	1,28
3	Yangihayot MFY	4	1,28
4	Oriyat MFY	4	1,28
5	Gulshanobod MFY	4	1,28
		5	1,28
6	Toshkent MFY	4	1,28
		5	1,28
7	Xushnud MFY	4	1,28
		5	1,28
8	Chortoq MFY	4	1,28
		5	1,28
9	Binokor MFY	4	1,28
		5	1,28
10	Xo'ja Uchqun MFY	5	1,28
11	Jaloir MFY	5	1,28
12	Yangi Gulzor MFY	4	1,28
		5	1,28
13	Olchazor MFY	4	1,30
14	Yo'ldosh MFY	4	1,28
15	Chorbog' MFY	4	1,28
16	Viqor MFY	4	1,28
17	Al-Farg'oniy MFY	4	1,28
18	Fayzli MFY	4	1,28
		5	1,28
19	Do'stlik MFY	4	1,28
20	Yangi Turmush MFY	4	1,28
21	Choshtepa MFY	4	1,28
22	Yangi Choshtepa MFY	4	1,28
23	Zarbdor MFY	4	1,28
24	Navqiron MFY	4	1,28
25	Xumo MFY	4	1,30
26	Mash'al MFY	4	1,30
27	Tashabbus MFY	4	1,30
28	Charog'on MFY	4	1,30
29	Marhamat MFY	4	1,30
30	Yorqin hayot MFY	4	1,30

Xalq deputatlari Yangihayot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrda
II-5-024-14-220-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**2025-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslarning turar obyektlari uchun olinadigan yer solig'i
bo'yicha mutloq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga
nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

(Turar ob'ektlar 1 kv.m uchun)

№	Mahalla nomi	Zona	2025-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1	Yangi Darxon MFY	4	1,20
		5	1,20
2	Yangi Umid MFY	4	1,28
3	Yangihayot MFY	4	1,28
4	Oriyat MFY	4	1,28
5	Gulshanobod MFY	4	1,28
		5	1,28
6	Toshkent MFY	4	1,20
		5	1,20
7	Xushnud MFY	4	1,28
		5	1,28
8	Chortoq MFY	4	1,20
		5	1,20
9	Binokor MFY	4	1,22
		5	1,22
10	Xo'ja Uchqun MFY	5	1,20
11	Jaloir MFY	5	1,20
12	Yangi Gulzor MFY	4	1,20
		5	1,20
13	Olchazor MFY	4	1,28
14	Yo'ldosh MFY	4	1,28
15	Chorbog' MFY	4	1,28
16	Viqor MFY	4	1,28
17	Al-Farg'oniy MFY	4	1,28
18	Fayzli MFY	4	1,28
		5	1,28
19	Do'stlik MFY	4	1,28
20	Yangi Turmush MFY	4	1,28
21	Choshtepa MFY	4	1,28
22	Yangi Choshtepa MFY	4	1,28
23	Zarbdor MFY	4	1,28
24	Navqiron MFY	4	1,28
25	Xumo MFY	4	1,28
26	Mash'al MFY	4	1,28

27	Tashabbus MFY	4	1,28
28	Charog'on MFY	4	1,28
29	Marhamat MFY	4	1,28
30	Yorqin hayot MFY	4	1,28